

HUQUQIY MEXANIZMLAR ORQALI AYOLLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKNI OLDINI OLISH

Ravshanova Mushtariy

Toshkent Davlat Agrar Universitet „Yurisprudensiya“ yo'nalish II kurs talabasi

[+998881172502ravshanovamushtariy@gmail.com]

Umurzakova Nargisaxon Muxtarovna

Ilmiy rahbar: Toshkent Davlat Agrar Universitet „Huquqshunoslik“ kafedrası dotsenti

[Mobil:+998990129077.E-mail :nargisau71@gmail.com]

Annotatsiya: Ayollarga nisbatan zo'ravonlik jamiyatning barcha sohalariga ta'sir qiluvchi global muammolardan biridir. Ushbu maqolada ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va huquqiy mexanizimning o'rnini va ahamiyati tahlil etiladi va zo'ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, huquqiy muammolar, zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha takliflar.

Аннотация: Незаконное присвоение сельскохозяйственных земель является одной из актуальных проблем современности. В данной статье рассматриваются основные причины незаконного присвоения сельскохозяйственных земель, их правовые основы и негативные последствия. Для устранения проблемы важно укрепление правовых механизмов, совершенствование системы контроля и справедливое распределение земельных ресурсов. В частности, в данной статье анализируется международный опыт и существующие нормы законодательства Узбекистана, предлагаются эффективные правовые меры.

Ключевы слова: Незаконное присвоение сельскохозяйственных земель, Земельное право, Правовые проблемы, Государственный контроль, Права землевладельцев, Судебная практика.

Annotation: Illegal appropriation of agricultural lands is one of the pressing issues of today. This article examines the main causes of illegal appropriation of agricultural lands, their legal framework, and negative consequences. Strengthening legal mechanisms, improving the control system, and ensuring a fair distribution of land resources are crucial to addressing this issue. In particular, this article analyzes international experience and existing regulations in Uzbekistan's legislation, offering effective legal measures

Key words: Illegal acquisition of agricultural lands, Land law, Legal issues, State control, Landowner rights, Judicial practice.





Barchamizga ma'lumki, hozirgi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda fuqorolarning huquqlarni ta'minlash, gender siyosatni yuritish va demokratiyani ta'minlash muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Hozirgi kunda ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha O'zbekiston va dunyo miqyosida ko'plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, negaki inson hayoti davomida turli vaziyatlarga duch keladi. Shunday holatlar bo'ladiki, fuqaroga davlatning yordami, madadi va ijtimoiy himoyasi zarur bo'lib qoladi. Ayniqsa, ayollarga, ma'lum hayotiy sabablarga ko'ra (ajralish, boquvchisini yo'qotish, qiyin ijtimoiy ahvolga tushib qolish, nogironlik keksalik va h.k) shunday holatlarda ular ijtimoiy yordamga muhtojlikni his qilishadi, bunday vaqtda, nimalarga va kimlarga ishonsa bo'ladi?

Zero, himoya - bu eng avvalo ishonch, barqarorlik va xotirjamlik kafolatidir. Ushbu maqolada biz davlat tomonidan xotin-qizlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, ijtimoiy himoya turlari haqida so'z yuritamiz. Bunga misol qilib yurtimizda joriy etilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarni keltirishimiz mumkin.

O'zbekistonda 2019-yilda zo'ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlar uchun "himoya orderi" instituti joriy etildi. O'zbekiston Respublikasining Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 17-avgustda qonun qabul qilindi, shuningdek ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish bo'yicha Jinoyat kodeksiga zo'ravonlik uchun javobgarlikni kuchaytiruvchi o'zgarishlar kiritildi. Shuningdek zo'rqlash, jinsiy tajovuz, oilaviy zo'ravonlik kabi jinoyatlar uchun jazo choralari og'irlashtirildi. Bu esa eng avvalo gender tengligini ta'minanishini aniq ravishda kuchlantirib berishga zamin yaratadi.

Gender tengligi - jinsiy tenglik bo'lib, erkaklar va ayollar o'rtasidagi har qanday sohada, oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o'rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha hisoblanadi. Aslini olganda gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi. Har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri - erkak va ayol huquqlari tengligining ta'minlanishidir. Bugungi kunda amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohatlarga nazar tashlasak ham buni yaqqol ko'rishimiz mumkin.

Yangi qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida ham xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi yoritilib o'tilgan. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi. Bu esa mamlakatimizda haqiqattan ham erkaklar va xotin-qizlar uchun teng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilayotganligidan dalolar beradi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunda xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va



madaniy huquqlarni amalga oshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo'yildi.

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Alohida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishlarning holati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo'yildi.

Hozirgi kunda yurtimizdagi rehabilitatsiya va moslashtirish markazlari tomonidan mingdan ortiq jabrlangan ayollar himoyaga olingan, ularga ruhiy yordam va boshqa zarur amaliy ko'mak berilmoqda. Aholining bu qatlamini himoya orderi bilan ta'minlash ham nihoyatda ahamiyatli masaladir.

Himoya orderi quyidagi asoslarga ko'ra, jabrlanuvchi xotin qizlarga taqdim etiladi:

- tazyiq va zo'ravonlik qurbonining murojaati;
- jismoniy yoki yuridik shaxslarning xabarлари, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari va (yoki) ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalgan xabarlar;
- tazyiq yoki zo'ravonlik sodir etish yoxud ularni sodir etishga urinish holatlarining vakolatli organlar va tashkilotlar xodimlari tomonidan bevosita aniqlanishi;
- davlat organlaridan va boshqa tashkilotlardan olingan materiallar;

Jabrlanuvchiga nisbatan bir kalendar yil davomida ikki va undan ortiq marta tazyiq hamda zo'ravonlik holati aniqlanganda, profilaktika inspektori himoya orderini tashabbus tartibida beradi.

Himoya orderi 30 kun muddatgacha beriladi va ushbu order rasmiylashtirilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Himoya orderida quyidagi cheklovlar nazarda tutilishi mumkin:

- tazyiq o'tkazishni va zo'ravonlik sodir etishni taqiqlash;
- tazyiq o'tkazgan yoki zo'ravonlik sodir etgan shaxsning jabrlanuvchilar bilan aloqasini taqiqlash (ish joylarida va ta'lim muassasalarida jabrlanuvchining tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxs bilan bilvosita aloqasiga yo'l qo'yiladi);
- tazyiq o'tkazilgan va zo'ravonlik sodir etilgan taqdirda jabrlanuvchining hamda tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning bir xonada birga bo'lishini taqiqlash;
- tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning zimmasiga jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish, uni tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarga yordam ko'rsatish bo'yicha maxsus markazga joylashtirish uchun xarajatlarning, etkazilgan moddiy zararining o'rnini qoplash, shuningdek, ma'naviy ziyonni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklash;
- tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik sodir etgan shaxsning qurolni (bundan xizmat quroli mustasno) saqlash va olib yurish huquqini himoya orderining amal qilishi yoki unda





ko'rsatilgan muddat davrida cheklash yoxud taqiqlash, shuningdek, qurol sotib olish uchun ruxsatnoma olishga doir huquqini taqiqlash.

Order amal qilishi davrida xavf bartaraf etilmagan bo'lsa, uning muddati jabrlanuvchining arizasiga ko'ra 1 yilgacha muddatga jinoyat ishlari bo'yicha sud tomonidan uzaytirilishi mumkin. Muddat uzaytirilgan davrda zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga qo'shimcha cheklovlar yoki profilaktik chora-tadbirlar belgilanishi mumkin.

Zo'ravonlik sodir etgan shaxslar tomonidan himoya orderi talablariga rioya etmaslik holatlari aniqlangan taqdirda profilaktika inspektori tomonidan o'z vakolati doirasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Shuningdek, tazyiq o'tkazgan va (yoki) zo'ravonlik sodir etgan yoxud ularni sodir etishga moyil bo'lgan shaxs tomonidan himoya orderi talablarini bajarmaslik, BHMning 1 baravaridan 3 baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoqqa olishga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ushbu maqolada ayollarga nisbatan zo'ravonliklarni oldini olish borasidagi huquqiy mexanizmlarning roli, ahamiyati faktlar va misollar orqali keltirib berildi. O'rganilgan qonunchilik hujjatlari himoya orderlari kabi huquqiy vositalar zo'ravonlikka qarshi kurashda muayyan yutuqlarga erishishga xizmat qilsada bu borada hanuz bartaraf etilishi zarur bo'lgan kamchiliklar borligi aniqlandi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz joizki, ayollarga nisbatan zo'ravonlikni bartaraf etish, gender tengligini ta'minlash faqatgina huquqiy yondashuv emas, bu balki, jamiyatimizning milliy qadriyatlarimizni yanada mustahkamlovchi asosiy zamindir, shu sababli ham har bir fuqaro qonunlarni hurmat qilish ruhida bo'lishi, boshqalarning huquq va erkinliklari va qonuniy manfaatlariga putur yetkazmasligi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
- 2.Ayollarga huquqiy madad (Sh.Soatova,F.Tojiyeva)
- 3.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
- 4.Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'risidagi qonun

